



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “25” aprel

BUYRUQ № 18

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika
tizimi doirasida respondentlar bilan ishlash
siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ- 4796- son qaroriga muvofiq, milliy statistika tizimida rasmiy statistikani tayyorlash uchun individual ma’lumotlarni yetkazib beruvchi respondentlar bilan ishlashning umumiy tartib qoidalarini takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimi doirasida respondentlar bilan ishlash siyosati” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 31- martdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimi doirasida respondentlar bilan ishlash siyosatini tasdiqlash to‘g‘risida” 6-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov